



BIOETHICAL ISSUES RELATED TO THE BEGINNING AND END OF HUMAN LIFE

Feruza Sadullaevna Atamuratova

Candidate of Philosophical Sciences

Associate Professor, Department of Social Sciences

Tashkent State Medical University

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: bioethics, issues, abortion, embryo status, artificial fertilization, surrogacy, euthanasia, palliative care, reproductive rights.

Received: 24.11.25

Accepted: 25.11.25

Published: 26.11.25

Abstract: The article examines contemporary bioethical issues such as abortion, the “status of the embryo,” artificial fertilization, surrogacy, euthanasia, and palliative care. It explores the key moral-ethical, legal, and cultural aspects of these topics. The analysis reveals contradictions between the value of human life, reproductive rights, the capabilities of modern technologies, and moral norms. The author emphasizes the need for a comprehensive approach that integrates universal values with cultural context in order to provide ethically grounded solutions to bioethical dilemmas.

INSON HAYOTINING BOSHLANISHI VA TUGASHI BILAN BOG‘LIQ BIOAXLOQIY MUAMMOLAR

Feruza Sadullaevna Atamuratova

Falsafa fanlari nomzodi

Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: bioaxloq, bioetika, muammolar, abort, embrion maqomi, sun‘iy urug‘lantirish, surrogat onalik, evtanaziya, palliativ yordam, reproduktiv huquqlar.

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy bioaxloqiy muammolar – abort, “embrion maqomi”, sun‘iy urug‘lantirish, surrogat onalik, evtanaziya va palliativ yordamning asosiy axloqiy, huquqiy va madaniy jihatları tahlil qilinadi. Inson qadri, reproduktiv huquqlar, texnologiyalar imkoniyati va axloqiy

cheklovlar o'rtasidagi ziddiyatlar ochib beriladi. Muallif bioaxloqiy muammolarni hal etishda universal qadriyatlar va madaniy kontekstni uyg'unlashtiruvchi kompleks yondashuv zarurligini ta'kidlaydi.

БИОЭТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ, СВЯЗАННЫЕ С НАЧАЛОМ И ОКОНЧАНИЕМ ЖИЗНИ ЧЕЛОВЕКА

Феруза Садуллаевна Атамуратова

кандидат философских наук,

доцент кафедры Социальных наук

Ташкентского государственного медицинского университета

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: биоэтика, проблемы, аборт, статус эмбриона, искусственное оплодотворение, сурrogатное материнство, эвтаназия, паллиативная помощь, репродуктивные права.

Аннотация: В статье анализируются современные биоэтические проблемы такие как, аборт, «статус эмбриона», искусственное оплодотворение, сурrogатное материнство, эвтаназия и паллиативная помощь. Рассматриваются ключевые морально-этические, правовые и культурные аспекты этих вопросов. Выявляются противоречия между ценностью человеческой жизни, репродуктивными правами, возможностями современных технологий и моральными нормами. Автор подчёркивает необходимость комплексного подхода, сочетающего универсальные ценности и культурный контекст, для этически обоснованного решения биоэтических дилемм.

Kirish. Bioaxloqiy muammolar – inson hayoti, sog'lig'i, tabiat va biotexnologik jarayonlar bilan bog'liq axloqiy dilemmalarni qamrab oluvchi murakkab falsafiy masalalardir. Ularda inson qadri, axloqiy tamoyillar, madaniy me'yorlar va texnologik rivojlanish o'rtasidagi ziddiyatlar namoyon bo'ladi. Globallashuv va fan-texnika taraqqiyoti sharoitida ushbu muammolarning ko'lami kengayib, yangi mazmun va yangi mas'uliyat shakllarini talab qilmoqda.

Inson hayotining boshlanishi va tugashi bilan bog'liq murakkab bioaxloqiy muammolar – abort (“homilani sun'iy yo'l bilan tushirish”) “embrion maqomi”, sun'iy urug'lantirish, surrogat onalik, evtanaziya, palliativ yordam kabi muammolarni o'z ichiga oladi. Ular haqida chisqachi tizg'talib o'tamiz.

Abort muammosi jamiyatda eng bahsli masalalardan biri bo'lib, uning axloqiy jihatlari turli qarashlar va qadriyatlar nuqtai nazaridan baholanadi. Bu masala biotibbiyotning, diniy ta'limotlarning, inson huquqlari va jamiyatning umumiy axloqiy me'yorlarining kesishuv nuqtasi hisoblanadi.

Dunyoda abortlarni qonuniylashtirgan birinchi davlat Rossiya bo'lgan (1920 yil). Bu yo'ldan borgan ikkinchi davlat Islandiya bo'ldi (1935 yil). Qolgan davlatlarda abortni liberallashtirish jarayoni XX asrning ikkinchi yarmida boshlangan. Masalan, Buyuk Britaniya abortni 1967 yilda, AQSh 1973 yilda qonuniylashtirgan. Ammo abort masalasi dunyo davlatlarida, misol uchun, AQShda eng chuqur ijtimoiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda va doimiy ravishda Kongress tomonidan muhokama qilinib kelinadi, "konservatorlar sun'iy homila tushirishni taqiqlashga chaqirmoqdalar" [1].

ASOSIY QISM. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, Gipporat qasamyodida "... ayollarning sog'lom homiladorligini to'xtatish uchun "yordam" bermayman" [2], deyilgan. Jeneva deklaratsiyasida, "Men inson hayotiga eng yuqori hurmat bilan munosabatda bo'laman, uning tug'ilishidan boshlab, hatto tahdid ostida ham, tibbiy bilimlarimni insoniyat qonunlariga zid tarzda qo'llamayman" [3], deb yozilgan. Aslida, abort tibbiyot etikasining eng qadimiy muammolaridan biri hisoblanadi. Gippokrat abortni ma'qullamagan bo'lsa-da, lekin Aristotel uni mumkin deb hisoblagan.

O'zbekistonda sun'iy homilani tushirish uchun tibbiy ko'rsatmalar "Homiladorlikni sun'iy ravishda to'xtatishni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomi"da belgilab qo'yilgan [4]. Bundan tashqari, ushbu nizomda homiladorning hayotiga xavf soluvchi tibbiy ko'rsatmalar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan [4]. Rossiya Federatsiyasida ijtimoiy ko'rsatmalar ham homiladorlikni sun'iy ravishda to'xtatishni amalga oshirish uchun asos bo'la oladi [5]. Rossiyada abort masalasi bilan shug'ullanuvchi shifokorlarning ma'lumotlariga ko'ra, "abort qildiruvchi ayollarning 91,4% i moliyaviy qiyinchilikni asosiy sabab sifatida ko'rsatishadi" [6].

Shuni alohida aytish joizki, aholining abort haqidagi tushunchasi va munosabati madaniy qadriyatlar va diniy qarashlar bilan bog'liq bo'lib, aksariyat hollarda tibbiy tavsiyalardan ustun turadi.

Bugungi kunda abortga nisbatan ikki asosiy axloqiy yondashuv mavjud. Birinchisi, abortga qarshi yondashuv bo'lib, unga ko'ra, homila tug'ilmagan bo'lsa ham, inson hayoti sifatida qadrlanishi kerak va uning hayotini tugatish qotillikka teng. Ushbu yondashuvning asosiy dalillari inson hayoti homiladorlikning boshlanishidanoq shakllanishi va uni to'xtatish jinoyat hisoblanishi, diniy nuqtai nazardan, abortga ruxsat berish gunoh hisoblanishi, abort jamiyatda

hayotga bo'lgan hurmatni kamaytirishi va axloqiy inqirozga olib kelishi mumkinligi, homilaning hech qanday tanlash huquqi yo'qligi, uning hayotini faqat ona hal qila olmasligi hisoblanadi. BMT ekspertlarining xulosasiga ko'ra, "Abortni taqiqlash abortga bo'lgan ehtiyojni va ularning soni kamaytirmaydi. Ular ayollarni faqat xavfli va noqonuniy xizmatlarga murojaat qilishga majbur qiladi" [7]. BMTning 2019 yildagi ma'lumotlariga ko'ra, "har yili dunyo bo'ylab 25 million abort xavfli sharoitlarda amalga oshiriladi, 22 ming ayol halok bo'ladi, 7 millionga yaqini yashirin abortlar natijasida jarohatlanadi, shu jumladan bepushtlikka olib keladi" [8]. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasining ma'lumotlariga ko'ra, "2022 yilning 1 yanvar holatiga O'zbekistonda 15-49 yoshli ayollar o'rtasida homiladorlikni to'xtatish (abortlar soni) 35,4 mingtani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2017 yilga nisbatan 7 mingga kamaygan" [9].

Ikkinchisi, abortni qonuniy va axloqiy deb hisoblovchi yondashuv hisoblanadi. Unga ko'ra, ayol o'z tanasi va hayoti haqida qaror qabul qilish huquqiga ega, shu jumladan homiladorlikni davom ettirish yoki to'xtatish masalasida ham. Ushbu yondashuvning asosiy dalillari, abortni taqiqlash ayollarning huquqlarini cheklashi va ularni xavfli noqonuniy abortlarga olib kelishi mumkinligi, homila haqiqiy shaxs emasligi, shuning uchun uning huquqlari ayol tanlash huquqidan ustun qo'yilmasligi kerakligi, agar homiladorlik zo'rlash, incest yoki tibbiy xavf sababli yuzaga kelgan bo'lsa, ayolning uni tugatish huquqi bo'lishi kerakligi, demografik, iqtisodiy va ijtimoiy holatlarda, ayniqsa, kam ta'minlangan oilalar uchun abort kerakli chora bo'lishi mumkinligi aytiladi. Ayollarning abort qilish huquqi uchun kurashgan faol Anjela Devis shunday degan edi: "Ayollarga ovoz berish, ta'lim olish, teng maosh olish va boshqa huquqlar beriladi. Ammo, agar ular o'z tanalari ustidan tasarruf qilish huquqiga ega bo'lmasalar, homiladorlik masalasida o'z taqdirini o'zlari hal qila olmasalar, bu huquqlarning hech qanday qadri qolmaydi" [10].

Ushbu mavzudagi bahsga homilaning inson sifatida tan olinishi yoki olinmasligi, qachondan boshlab homila inson deb hisoblanishi mumkinligi kiradi. Tibbiyotda, bir tomondan, inson hayoti sperma va tuxum hujayra uchrashgan paytdanoq boshlansa, boshqa tomondan, inson hayoti asab tizimi shakllanganidan yoki bola tug'ilgandan keyin boshlanadi degan fikrlar mavjud. Bundan tashqari, homilaning shakllanish bosqichlari (40 kun, 120 kun, tug'ilish) asosida turli yondashuvlar ham mavjud. Tibbiyotdagi bu muammo axloqiy tortishuvlarga sabab bo'ladi. Agar homila inson deb hisoblansa, uning hayotini tugatish qotillikka teng bo'ladimi? Yoki uning ongsiz ekanligi abortni axloqiy jihatdan oqlaydimi?

Yana bir muhim tomoni, ona va homilaning huquqlari o'rtasidagi ziddiyat, ya'ni, ona va homilaning huquqlari bir-biriga qanday ta'sir qiladi? "Abortning axloqiy masalalarida asosiy tortishuv ayolning reproduktiv huquqlari va homilaning hayot huquqi o'rtasidagi ziddiyatdan

iborat” [11]. “Abortning axloqiy masalalarida asosiy tortishuv ayolning reproduktiv huquqlari va homilaning hayot huquqi (“embrion maqomi”) o’rtasidagi ziddiyatdan iborat” [12]. Abortga qarshi qarashga ko’ra, ona homilaning hayotini yo’q qilish huquqiga ega emas, chunki bu uning shaxsiy mulki emas. Abort tarafdorlarining qarashlariga ko’ra, ona o’z tanasi ustida to’liq huquqqa ega va agar homiladorlik uning hayoti, sog’lig’i yoki kelajagiga xavf tug’dirsa, undan voz kechish huquqi bor. Ushbu qarashlar asosida boshqa muammo kelib chiqadi, kimning huquqi ustun: onanikimi yoki homilaniki? Ona va homila o’rtasidagi munosabat qanday belgilanishi kerak?

Albatta, abortga qaysi nuqtai nazardan qarasak ham u jamiyatga o’z ta’sirini o’tkazadi. Bir tomondan, ijobiy ta’sir etsa (zo’rlash yoki inest qurbonlariga yordam beradi, kambag’allik yoki aholining ortiqcha o’sishini cheklaydi, noqonuniy abortlardan keladigan tibbiy xavfni kamaytiradi), ikkinchi tomondan, salbiy ta’sir o’tkazadi (demografik inqirozga, abort ko’payishi jamiyatda hayot qadrlining tushishiga olib kelishi va ayollar ruhiy zo’riqishga uchrashi mumkin (abortedan keyingi pushaymonlik)).

Shunday qilib, abort haqida yagona fikr yo’q. U axloqiy jihatdan bahsli masala bo’lib, abortning axloqiyliigi yoki nohaqligi shaxsiy, diniy va jamiyat qarashlariga bog’liq. Uni qat’iy taqiqlash yoki cheklovsiz ruxsat berish jamiyatda murakkab muammolarga olib kelishi mumkin. Oldini olish choralari sifatida kontrasepsiya, reproduktiv ta’lim va ijtimoiy yordam eng yaxshi yo’l bo’lishi mumkin.

Sun’iy urug’lantirish bilan bog’liq bioaxloqiy muammolar turli jihatdan tadqiq etilgan va jahon olimlari bu sohada jiddiy bahslar olib borgan. Birinchi navbatda, bu muammoda donor maxfiyligi va bolaning huquqlari masalasi bor. Donor anonim qolgan hollarda tug’ilgan bola o’z biologik kelib chiqishi haqida to’liq ma’lumotga ega bo’lmaydi. Bu esa uning shaxsiylik huquqini cheklaydi va kelajakdagi salomatlik xavflarini nazorat qilish imkoniyatini yo’qotadi. Amerikada o’tkazilgan so’rov natijalariga ko’ra 91% ishtirokchi aslida anonim donorlik orqali dunyoga kelganini faqat keyin anglagan. Shu bilan birga, 85,5% respondentlar donor haqida aniq ma’lumotni bilish huquqiga ega bo’lishni istashgan. Olimlar ta’kidlaganidek, bunday “anonimlik insonning psixologik holatiga katta ta’sir ko’rsatadi, o’zini anglash va shaxsiy idrok jarayonlarida kamchiliklar keltirib chiqaradi” [13]. Bu holat sun’iy urug’lantirish jarayonining eng bahsli va dolzarb bioaxloqiy muammolaridan biri hisoblanadi.

Ikkinchi muhim muammo, genetik seleksiya bilan bog’liq. Zamonaviy texnologiyalar yordamida embrionlarni tekshirib, ularning muayyan genetik xususiyatlariga qarab tanlab olish mumkin. Bu jarayon dastlab irsiy kasalliklarning oldini olish maqsadida joriy etilgan bo’lsa-da, amaliyotda u boshqa maqsadlarda ham qo’llanilyapti. Masalan, implantatsiyadan oldingi genetik

tashxis (PGD) orqali nafaqat kasalliklarni aniqlash, balki jins tanlash yoki oilada bemor farzandga donor bo'ladigan "qutqaruvchi aka-uka" tanlash holatlari ham kuzatilmoqda. Olimlarning fikricha, "bunday imkoniyatlar "dizayner bola" tendensiyasini yuzaga keltiradi. Ya'ni, genetik jihatdan "mukammal" deb topilgan embrionlar qoldirilib, boshqalari esa yo'qotilishi mumkin. Bu esa inson tabiiy merosini sun'iy yo'naltirish, irsiy xilma-xillikka putur yetkazish va ijtimoiy adolatsizlikka olib kelish xavfini kuchaytiradi" [14]. Shu bois, genetik seleksiya sun'iy urug'lantirish bioetikasining eng bahsli masalalaridan biri hisoblanadi.

Uchinchi muhim muammo, xabardorlikka asoslangan rozilik tamoyili bilan bog'liq. Amerika Tibbiy axloq kodeksiga ko'ra, "sun'iy urug'lantirish jarayonida ham bemor, ham donor barcha xavf-xatarlar, ehtimoliy natijalar va boshqa alternativ usullar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi kerak". [15]. Faqat shu holda ular ongli ravishda qaror qabul qilishi mumkin. Lekin amaliyotda bu qoida har doim ham to'liq bajarilmaydi. Ba'zi hollarda bemorlar barcha ehtimoliy oqibatlardan xabardor qilinmaydi yoki axborot yetarlicha ochiq va tushunarli tarzda berilmaydi. Bu esa keyinchalik huquqiy va axloqiy nizolarga sabab bo'ladi. Shuningdek, ayrim hollarda "tug'ilish firibgarligi" deb ataladigan holatlar ham uchraydi. Bunday holatda shifokor bemorni aldab, anonim donor urug'i o'rniga o'z urug'idan foydalanishi mumkin. AQShda bunday voqealar ochiqlanganda jamiyatda katta bahs va muhokamalarga sabab bo'lgan, chunki bu nafaqat tibbiy axloq qoidalarini, balki insonning ishonchi va huquqlarini ham buzadi.

Nihoyat, sun'iy urug'lantirish masalasida din va madaniy qarashlar ham muhim o'rin tutadi. Masalan, katolik cherkovi bu amaliyotni tabiiy oila tuzumiga ziyon yetkazuvchi deb baholaydi va rad etadi. Cherkovning fikricha, "sun'iy urug'lantirish oilaviy munosabatlarni sun'iy ravishda o'zgartirib, inson hayotining muqaddasligiga tahdid soladi" [16].

Ko'rinib turibdiki, sun'iy urug'lantirish masalasi tibbiyot sohasidagi ilmiy yutuqlardan tashqari, keng ko'lamli axloqiy, huquqiy va madaniy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun sun'iy urug'lantirish masalasiga faqat tibbiy nuqtai nazardan emas, balki kompleks yondashuv zarur.

Surrogat onalik zamonaviy tibbiyotda yuzaga kelgan eng bahsli mavzulardan biri hisoblanadi. Bu masalaga turli nuqtai nazarlardan qaralganda, bir qancha jiddiy axloqiy, huquqiy va madaniy muammolar ko'rinadi. Birinchi navbatda, bu jarayon ayol tanasi va inson qadriyatiga bog'liq savollarni tug'diradi. Ayrim olimlar va diniy tashkilotlar surrogat onalikni ayol tanasini tijorat ob'ektiga aylantirish sifatida baholaydilar. Bu holat "tabiiy onalik hissiyotiga va inson qadriga ziyon yetkazishi mumkin" [17]. Ikkinchi muammo, tijoratlashuv xavfidan iborat. Ko'pincha surrogat onalik xizmatlari pulli shartnoma asosida amalga oshiriladi. Bu esa "iqtisodiy qiynalgan ayollarning ekspluatatsiya qilinishiga, ularning reproduktiv salohiyati

“resurs” sifatida ishlatilishiga olib kelishi mumkin” [18]. Uchinchi jihatdan, tug‘ilgan bolaning huquqiy maqomi doim ham aniq emas. U kimning farzandi hisoblanishi kerak, biologik otasini yoki surrogat onasini? Shu kabi holatlar ko‘plab sud ishlariga ham sabab bo‘lgan. To‘rtinchidan, diniy va madaniy qarashlar bilan bog‘liq bo‘lib, katolik cherkovi surrogat onalikni rad etadi va uni oilaviy an‘analarga zid deb hisoblaydi. Islom ulamolari orasida esa turli fikrlar mavjud, ayrimlari mutlaqo taqiqlaydi, boshqalari esa “faqat nikoh doirasida va muayyan shartlar asosidagina joiz deb hisoblaydi” [19]. Nihoyat, psixologik oqibatlar ham bor. Surrogat ona tug‘ilgan boladan ajralganda kuchli emotsional qiyinchiliklarni boshdan kechirishi mumkin. Shuningdek, bola katta bo‘lgach o‘zining kelib chiqishi haqidagi savollar uning shaxsiy identifikatsiyasiga ta’sir qilishi ehtimoldan xoli emas.

Demak, surrogat onalik masalasini beryoqlama baholash mumkin emas. U bolasi bo‘la olmagan oilalar uchun umid eshigi bo‘lishi mumkin, ammo uning ortida jamiyatda katta axloqiy va huquqiy muammolar paydo bo‘ladi. Shuning uchun surrogat onalik qonunchilik asosida qat’iy tartibga solinmasa, u inson qadr-qimmatini va adolat tamoyillariga zid holatlarga olib kelishi ehtimoli juda yuqori.

Evtanaziya – yunoncha so‘z bo‘lib, “ey” – yaxshi, ezgu, “thanatos” esa o‘lim ma’nosini bildiradi. Ushbu termin ilk bor F. Bekon tomonidan “Fanlar sha’ni va ko‘payishi to‘g‘risida” nomli asarida qo‘llanilgan bo‘lib, evtanaziyani yengil, og‘riqsiz va hatto baxtli o‘lim sifatida tushuntirgan. 1987 yilda qabul qilingan evtanaziya bo‘yicha JSST deklaratsiyasiga ko‘ra, “evtanaziya bemorning o‘z iltimosiga ko‘ra yoki uning yaqin qarindoshlarining iltimosiga ko‘ra amalga oshirilgan taqdirda ham, bemorning hayotini tugatish harakati hisoblanadi va axloqqa ziddir” [20].

Bilamizki, faol evtanaziya ayrim mamlakatlarda qonunlashtirilgan bo‘lsa-da, boshqa yurisdiksiyalarda bu jinoyat hisoblanadi. Evtanaziyani qonuniylashtirish 1984 yilda Niderlandiya Oliy sudi tomonidan evtanaziyani maqbul deb tan olinishi bilan boshlangan. So‘nggi bir necha yil ichida xorijiy mamlakatlarda evtanaziyani qonuniylashtirish amaliyoti ko‘paydi. Avstriya, Belgiya, Kanada, Germaniya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Yangi Zelandiya, Portugaliya, Shvesiya, Ispaniya, Avstraliya, Yaponiya, Janubiy Afrika va ayrim AQSh shtatlarida evtanaziya ma’lum shartlar asosida qonuniy hisoblanadi. AQShning Kaliforniya, Kolorado, Oregon, Vashington va boshqa shtatlarida “yordam beruvchi o‘lim” qonunlashtirilgan. Niderlandiyada evtanaziyani amalga oshirish uchun qat’iy tibbiy talablar mavjud. Shuningdek, ushbu “xizmatni chet el fuqarolariga ham ko‘rsatuvchi tashkilotlar bor” [21]. Bugun hukumatlar evtanaziyani qonuniylashtirishdan ehtiyot bo‘lmoqda, chunki “Agar evtanaziya huquqiy maqomga ega bo‘lsa,

suiiste'mollar va majburiy evtanaziya xavfi yuzaga kelishi mumkin" [22]. Bu mavzu keng jamoatchilik va huquqshunoslar o'rtasida bahslar hali uzoq davom etadi.

Palliativ yordam og'ir, davolab bo'lmaydigan yoki rivojlanuvchi kasalliklarga chalingan bemorlarning azob-uqubatlarini yengillashtirishga qaratilgan tibbiy va ijtimoiy yordam tizimi hisoblanadi. Bemorlarga bunday yordam ko'rsatishning turli shakllari mavjud bo'lsa-da, asosiy yo'nalishlar ikki turga bo'linadi, ixtisoslashtirilgan tibbiy muassasalardagi xospis parvarishi va uy sharoitidagi palliativ yordam.

Zamonaviy palliativ yordamning asosiy maqsadi bemorning hayot sifatini maksimal darajada yaxshilashdan iborat bo'lib, bu jarayonda uning umrini sun'iy uzaytirish yoki qisqartirish niyat qilinmaydi. Palliativ yordam faqat kasallik alomatlarini yengillashtirish bilan cheklanmay, balki bemor va uning yaqinlari duch keladigan psixologik hamda ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan bo'ladi.

Xulosa. JSST ma'lumotlariga ko'ra, palliativ yordam natijasida parvarishni amalga oshirayotgan shaxslarning hayot sifati ham yaxshilanadi. Hisob-kitoblarga ko'ra, "har yili 56,8 million kishi palliativ yordamga muhtoj bo'ladi, shu jumladan hayotining so'nggi kunlarida 25,7 million kishini tashkil qiladi. Hozirgi vaqtda butun dunyo bo'ylab palliativ yordamga muhtoj bo'lgan odamlarning atigi 14% i ushbu yordamni olishga qodir" [23].

Dastlab onkologiya sohasida mustaqil yo'nalish sifatida rivojlangan palliativ yordam, bugungi kunda saraton, balki yurak-qon tomir, nerv tizimi va boshqa davolab bo'lmaydigan kasalliklarning oxirgi bosqichidagi bemorlar uchun qo'llanilmoqda. "O'zbekistonda 100 mingdan ortiq bemor saraton kasallari hisoblanadi, har yili 20 mingdan ortiq odamlarda xavfli o'smalar aniqlanmoqda" [24]. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, turli kasalliklarning terminal bosqichidagi bemorlar soni butun dunyo bo'ylab oshib bormoqda. Bunday vaziyatda yagona to'g'ri yondashuv, bemor va uning yaqinlari uchun munosib sharoit yaratish hamda palliativ yordamni kuchaytirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abort International// Internet-izdanie Washington ProFile (www.washprofile.org)
2. Klyatva Gippokrata//
https://www.bsmu.by/upload/docs/kafedri/k_obsch_zdorov/v1.pdf
3. Jenevskaya deklaratsiya Vsemirnoy Meditsinskoy Assotsiatsii//
<https://webmed.irkutsk.ru/doc/order/genev1.pdf>
4. Homiladorlikni sun'iy ravishda to'xtatishni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida//<https://lex.uz/docs/4951702>

5. Prikaz ot 11 iyunya 1996 g. N 242 O perechne sotsialnykh pokazaniy i utverjdenii instruktsiy po iskusstvennomu prerывaniyu beremennosti// <https://normativ.kontur.ru/document?moduleId=1&documentId=19202>
6. Shamov I. A. Biomeditsinskaya etika//<https://e-library.sammu.uz/uploads/pdf>
7. Zapret na abortы - gruboe narushenie prav jеnщin// <https://news.un.org/ru/story/2016/09/1292471>
8. V OON prizyvayut strany garantirovat jеnщinam pravo na bezopasnye i legalnye abortы// <https://news.un.org/ru/story/2019/09/1363952>
9. O‘zbekistonda ayollarning abort qilish ko‘rsatkichi pasaydi// <https://darakchi.uz/uz/146447>
10. Angela Davis and Women, Race, & Class: A Pioneer in Integrative RGC Studies. Bernice McNair Barnett.
11. Fromer MJ. Abortion ethics. Nurs Outlook. 1982 Apr;30(4):234-40. PMID: 7041095//Abortion ethics - PubMed
12. Dustin Crummett. Is Abortion the Only Issue?// https://www.researchgate.net/publication/369719138_Is_Abortion_the_Only_Issue
13. Rennie Burke, Yvette Ollada Lavery, Gali Katznelson, Joshua North, J. Wesley Boyd. How Do Individuals Who Were Conceived Through the Use of Donor Technologies Feel About the Nature of their Conception?// <https://bioethics.hms.harvard.edu/journal/donor-technology>
14. Jennifer A. Daunda, Samuel H. Strenberg. A Crack in Creation// <https://www.sackett.net/Crack-in-Creation.pdf>
15. AMA Code of Medical Ethics’ Opinions on Assisted Reproductive Technology | Journal of Ethics | American Medical Association
16. Developments in bioethics – CCEA// <https://www.bbc.co.uk/bitesize/guides/zdjyd6f/revision/7#:~:text=There%20are%20different%20opinions%20among,and%20is%20therefore%20wrong.&text=The%20Methodist%20Church%20%2D%20The%20Methodist,to%2014%20days%20after%20fertilisation.>
17. Elizabeth S. Anderson. Why Commercial Surrogate Motherhood Unethically Commodifies Women and Children: Reply to McLachlan and Swales// https://www.researchgate.net/publication/12345408_Why_Commercial_Surrogate_Motherhood_Unethically_Commodifies_Women_and_Children_Reply_to_McLachlan_and_Swales

18. Green N. The baby business. How money, science, and politics drive the commerce of conception. J Clin Invest. 2006 Aug 1;116(8):2061. doi: 10.1172/JCI29554. PMID: PMC1523406.
19. Miriam Shuchman. Bioethics_4th_Edition_Encyclopedia//
https://www.researchgate.net/publication/279571468_Bioethics_4th_Edition_Encyclopedia_2014_Mentally_disabled_and_mentally_ill_persons_I_Health_care_issues_c_2014_Cengage_Learning_Macmillan_Reference_USA
20. World Medical Association Declaration on Euthanasia//
https://www.dgpalliativmedizin.de/images/stories/pdf/87_e.pdf
21. Annika Lall, Silvia Kaugia. Euthanasia and/or assisted suicide: for or against? // socr.29.2024.2.39-45
22. Picón-Jaimes YA, Lozada-Martinez ID, Orozco-Chinome JE, Montaña-Gómez LM, Bolaño-Romero MP, Moscote-Salazar LR, Janjua T, Rahman S. Euthanasia and assisted suicide: An in-depth review of relevant historical aspects. Ann Med Surg (Lond). 2022 Feb 11; 75:103380. DOI: 10.1016/j.amsu.2022.103380. PMID: 35242326; PMID: PMC8857436.
23. Palliative care. 5 August 2020. Key facts//Palliative care
24. O'zbekistonda saraton kasalligining ko'plab holatlari qanday sabablarga ko'ra saqlanib qolayotgani ochiqlandi//<https://kun.uz/kr/news/2019/09/20/ozbekistonda-saraton-kasalligining-koplab-holatlari-qanday-sabablarga-kora-saqlanib-qolayotgani-ochiqlandi?q=%2Fnews%2F2019%2F09%2F20%2Fozbekistonda-saraton-kasalligining-koplab-holatlari-qanday-sabablarga-kora-saqlanib-qolayotgani-ochiqlandi#!>
25. Рустамова М., Атамуратова Ф. С. Роль полового воспитания в укреплении здоровья населения //Academic research in educational sciences. – 2022. – №. 2. – С. 192-197.
26. Рахманова С. Г. К., Атамуратова Ф. С. Биоэтические вопросы экстракорпорального оплодотворения //Academic research in educational sciences. – 2022. – №. 2. – С. 206-211.